



ADDITIONAL TYPES OF PUNISHMENT: COMPARATIVE ANALYSIS OF THE LEGISLATION OF UZBEKISTAN AND RUSSIA

Ametova Nurjamal Kudaybergenovna

Basic doctoral student of Karakalpak State University named after Berdakh

e-mail: nurjamal0652@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13324739>

ARTICLE INFO

Received: 09th August 2024

Accepted: 14th August 2024

Online: 15th August 2024

KEYWORDS

Penal system, basic punishments, additional punishments, mixed punishments, deprivation of certain rights, decriminalization, special ranks, military ranks.

ABSTRACT

This article analyzes the system of criminal penalties, types of additional penalties, their similarities and differences in the criminal legislation of the Republic of Uzbekistan and the Russian Federation.

ДОПОЛНИТЕЛЬНЫЕ ВИДЫ НАКАЗАНИЯ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА УЗБЕКИСТАНА И РОССИИ

Аметова Нуржамал Кудайбергеновна

Докторант Каракалпакского государственного университета имени Бердаха

e-mail: nurjamal0652@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13324739>

ARTICLE INFO

Received: 09th August 2024

Accepted: 14th August 2024

Online: 15th August 2024

KEYWORDS

Уголовно-исполнительная система, основные наказания, дополнительные наказания, смешанные наказания, лишение определенного права, декриминализация, специальные звания, воинские звания.

ABSTRACT

В данной статье анализируется система уголовных наказаний, виды дополнительных наказаний, их сходства и различия в уголовном законодательстве Республики Узбекистан и Российской Федерации.

QO'SHIMCHA JAZO TURLARI: O'ZBEKISTON VA ROSSIYA QONUNCHILIGI QIYOSIY TAHLILI



Ametova Nurjamal Qudaybergenovna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti

e-mail: nurjamal0652@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13324739>

ARTICLE INFO

Received: 09th August 2024

Accepted: 14th August 2024

Online: 15th August 2024

KEYWORDS

Jazo tizimi, asosiy jazolar, qo'shimcha jazolar, aralash jazolar, muayyan huquqdan mahrum qilish, dekriminalizatsiya, maxsus unvonlar, harbiy unvonlar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi jinoyat qonunchiliklarida jinoiy jazolarning tizimi, qo'shimcha jazolarning turlari, ularning o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilingan.

Huquqni qo'llash amaliyotida ko'pincha asosiy va qo'shimcha jazolarning o'zaro bog'liqligi va ulardan eng to'g'ri (aniq) jazoni tanlash kabi vaziyatlar uchrab turadi. Qo'shimcha jazo turlarini ko'rib chiqishning dolzarbligi umuman jinoiy jazo institutini o'zini takomillashtirish zarurati bilan bog'liq. O'zbekiston Jinoyat qonunida jazolarning 10 ta turi mavjud bo'lib, shundan 8 tasi asosiy, 1 tasi ham asosiy ham qo'shimcha, 1 tasi faqat qo'shimcha jazo sifatida qo'llaniladi. Rossiya Federatsiyasi amaldagi Jinoyat kodeksining 44-moddasida jazo tizimi ko'rsatilgan bo'lib, unda 13 turdag'i jazo turlari sanab o'tilgan. Ushbu kodeksning 45-moddasida esa jazolar 3 turga: birinchisi asosiy, ikkinchisi aralash (ya'ni ham asosiy ham qo'shimcha jazo sifatida tayinlanadigan jazolar), uchinchisi faqat qo'shimcha jazolarga bo'lingan (1). Rossiya jinoyat qonunchiligida ustuvorlik sifatida yondashuv belgilab qo'yilgan bo'lib, uning doirasida asosiy jazo turlari qo'shimcha jazo sifatida harakat qilishi mumkin, masalan, jarima ham jazoning birinchi turi, hamda ikkinchi jazo sifatida ham ko'rib chiqilishi mumkin.

O'zbekiston Jinoyat qonunida esa jarima faqat asosiy jazo sifatida qo'llaniladi. Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi esa ham asosiy ham qo'shimcha jazo sifatida qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi qabul qilinganining dastlabki yillarida jinoyat qonunida 2 xil turdag'i birinchisi, harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish (52-modda) va ikkinchisi, mol-mulkni musodara qilish (53-modda) kabi qo'shimcha jazo turlari mavjud edi. Unga ko'ra, 53-modda quyidagicha mazmunga ega edi: mol-mulkni musodara qilish mahkumning mulki bo'lgan mol-mulkning hammasini yoki muayyan qismini haq to'lamasdan majburiy ravishda davlat mulkiga o'tkazishdan iboratdir. Mol-mulkni musodara qilish sud tomonidan faqat Jinoyat kodeksi Maxsus qismining moddasida nazarda tutilgan bo'lsagina tayinlanishi mumkin. Mahkumning oilasi normal turmush kechirishi uchun zarur bo'lgan uyjoy, kvartira, uy anjomlari hamda jihozlari, kiyimlar va boshqa buyumlar musodara qilinmaydi [2]. Lekin, 2001-yil 29-avgustdagi O'zbekiston Respublikasining "Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar



kiritish haqida"gi 254-II-sonli qonuni bilan Jinoyat kodeksidan 53-modda dekriminalizatsiya qilingan (chiqarilgan).

Rossiya qonunchiligidagi qo'shimcha jazo turlarining tor ma'noda ya'ni faqat bitta turdag'i jazoni o'z ichiga olgan maxsus harbiy va faxriy unvondan, sinf unvoni va davlat mukofotlaridan mahrum qilish jazosi mavjud. Keng ma'noda qo'shimcha jazolar quyidagi turlari bilan ifodalanadi: muayyan lavozimlarni egallash yoki muayyan kasb bilan shug'ullanish huquqididan mahrum qilish, jarima.

Ushbu konsolidatsiya bir qator asosiy xususiyatlarga ega. Birinchidan, dastlab qo'shimcha jazo turlari Rossiya Federatsiyasining 1996 yildagi Jinoyat kodeksida mustahkamlangan. Biroq, ulardan faqat ikkitasi bor bo'lib, ular ham ahamiyatsiz sanalardi. Keyinchalik, jinoyat qonunchiligining matnidan mol-mulkni musodara qilish jazosi chiqarildi, lekin keyinchalik boshqa jinoiy huquqiy choralar sifatida qayta tiklandi.

Ikkinchidan, bu konsolidatsiya Rossiya davlatining jinoyat qonunchiligining tarixiy rivojlanish doirasida o'z aksini topadi. Ikki qo'shimcha turdag'i jazolar 1960 yildagi RSFSR Jinoyat kodeksida mustahkamlandi [3]. Sovet qonunchiligidagi bu o'rganilayotgan jazo turlari alohida ahamiyat kasb etgan.

Hozirgi vaqtida jinoyat qonunchiligining qo'shimcha turlarini huquqiy tartibga solish ko'p jihatdan XX asr oxiri - XXI asr boshlarida Rossiya davlatchiligi taraqqiyotidagi o'zgarishlar bilan bog'liq. 1993-yildagi Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi qo'shimcha jazolar institutiga katta ta'sir ko'rsatdi [4].

Ta'kidlash joizki, bunday bo'linish butun jazo tizimini tasniflash haqidagi munozaradan kelib chiqadi. Ulardan uch turi mavjud: asosiy, qo'shimcha va aralash. Shunisi e'tiborga loyiqliki, aralash jazo turlarining qatoriga ozodlikni cheklash, jarima, muayyan lavozimlarni egallash huquqididan mahrum qilish, muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqididan mahrum qilish kabi jazolar kiradi.

Biroq, bunday bo'linish butunlay to'g'ri emas deb hisoblaydi L.O.Rojkova, bu birinchi navbatda amaldagi Jinoyat kodeksi jazo tayinlash qoidalarida asosiy va qo'shimcha jazoni qo'llashda farqlovchi belgilar mavjud emas. Jazo tayinlashning umumiyligi va maxsus qoidalari asosiy va qo'shimcha jazo tayinlashda bir xilda hisobga olinadi, faqat ob'ektiv va sub'ektiv omillar bo'lgandagina maxsus qoidalari qo'llaniladi (5).

Qo'shimcha jazolarni tayinlashda o'ziga xos xususiyatlari bor: muayyan jazoni tanlash, miqdorini aniqlash, jazolarni qo'shish holatlarini aniqlash. Biroq, bu xususiyatlar nima uchun bu jazo qo'shimcha jazo emas balki asosiy jazo sifatida tayinlanishi kerak degan savolga aniqlik kiritmaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, qonun chiqaruvchi asosiy, qo'shimcha, aralash jazolarga qonuniy ta'rif bermasdan, Jinoyat kodeksining tegishli moddasida oddiy ro'yxatlash bilan cheklanadi. Biroq nazariyada bu masalaga etarlicha e'tibor qaratildi, asosiy jazolarni (ozodlikdan mahrum qilish, ahloq tuzatish ishlari va boshqalar) jazoning asosiy maqsadlariga erishishga qaratilgan javobgarlikning mustaqil choralar sifatida, qo'shimcha jazolar esa asosiy maqsadni emas, balki yordamchi maqsadlarni ko'zlaydi, shuning uchun ular mustaqil emas, balki asosiy jazo bilan birga tayinlanadi. Shu bilan birga, bunday jazolar guruhini "aralash jazolar" sifatida aniqlashning maqsadga muvofiqligi masalasi ochiqligicha qolmoqda.



Ilmiy adabiyotlarda aralash jazolar tushunchasiga tarif ham, tushunchaning huquqiy ta'rifi ham yo'q, faqat ularning ro'yxati mavjud. V.K.Duyunov Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 45-moddasida nazarda tutilgan jazolarning uch turga bo'linishi faqat qonunchilik materialini tejash maqsadidagi qonunchilik texnikasi sifatida ahamiyatga ega deb yozadi [6].

Qariyb 20 yil davomida turli muassasalarda jinoyat qonunchiligini har tomonlama rivojlantirish va takomillashtirish ishlari amalga oshirildi.

Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kundan boshlab jinoiy jazo tayinlashda aybdor shaxsni ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lman jazolarga nisbatan ko'proq e'tibor qaratila boshlandi. Ko'pgina vaziyatlarda qo'shimcha jazolar keraksiz bo'lib chiqdi, chunki davlatda jinoiy jazolarni liberallashtirish va insonparvarlashtirish to'lqini kuzatildi.

Ta'kidlash joizki, bir necha o'n yillar davomida yuridik adabiyotlarda jinoyat huquqidagi qo'shimcha jazo turlariga jiddiy e'tibor qaratildi.

Shunday qilib, birinchi guruh tadqiqotchilar jazo turlarining asosiy va qo'shimchaga bo'linishi jazoni individuallashtirish chegaralari ortib borayotgan vaziyatga olib keladi degan xulosaga keladi [7, b. 43]. Bunday holatda qo'shimcha jazolarni og'irlashtiruvchi va aybdor shaxsning holatini yomon tomonga o'zgartirish sifatida qo'llanilishi mumkin emas. Bunda jinoiy jazoni differensiallashtirishga e'tibor qaratiladi.

Jinoyat ishining holatlariga qarab qo'shimcha jazo turlarining o'ziga xos xususiyatlarini va ushbu jazo turlarini qo'llash orqali hal qilinadigan muammolarni aniqlagan mualliflarning yana bir yondashuvini ko'rib chiqish lozim.

Shunday qilib, quyidagilar ajralib turadi:

- jazoni individuallashtirishni amalga oshirish;
- aybdorga jazo tayinlaydigan jazolovchi tomonning rolini oshirish;
- asosiy jazoning ta'sirini kamaytirish;
- aybdor shaxsning ozodlikdan mahrum qilish joylarida bo'lishi natijasida yo'qolgan reaksiyalarini tiklash.

[8, b. 47]

Shuningdek, uchinchi guruh tadqiqotchilar qo'shimcha jazo turlarining ma'nosi noqonuniy tajovuzlarning alohida turlarining sodir etilishining oldini olishga to'liq erishish uchun jinoiy jazoni izchil individuallashtirishdan iborat degan xulosaga kelishadi. [9, b.104]. Aybdorga asosiy jazo bilan bir qatorda qo'shimcha jazoni tanlash nafaqat bunday qilmishlarni sodir etgan shaxsga, balki bunday javobgarlikka tortishni kuzatuvchi boshqa shaxslarga ham yanada samarali taqiqni ishlab chiqishga yordam beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, hozirda qo'shimcha jazo turlari instituti jinoyat huquqida yetarlicha tuzilmagan va shakllanmagan sifatida namoyon bo'lmoqda, buning natijasida huquqni qo'llovchi uni jinoiy jazo doirasidagi muhim va majburiy element deb hisoblamaydi.

Shu bilan birga, ko'pincha yuridik adabiyotlarda qo'shimcha jazo turlarini jinoiy jazolarni tayinlashda ba'zi eskirgan shakllar sifatida tushunish masalasi mavjud. Biroq bunday bayonot noto'g'ri, chunki zamonaviy jinoyat huquqi va huquqni qo'llash amaliyotida ushbu jazo turlari o'zining yuksak samaradorligini isbotlagan.

Hozirda noqonuniy tajovuzlarning yangi turlari, shuningdek ularni sodir etish shakllari paydo bo'lmoqda, buning natijasida ularning sodir etilishining oldini olishga qodir maxsus



chora-tadbirlar sifatida harakat qiladigan boshqa qo'shimcha jazo turlarini belgilash zarurati tug'iladi.

Qo'shimcha jazo turining aybdorga ta'sirining samaradorligi uni qo'llashning individuallashuvi bilan belgilanadi. Jinoyat huquqi nazariyasida qonunga xilof harakat sodir etgan jinoyatchiga nisbatan alohida yagona belgi mavjud emas. Har bir aybdor shaxs individualdir, shuning uchun unga nisbatan individual jazo qo'llanilishi kerak.

Qonun chiqaruvchi jinoiy jazolarning qo'shimcha turlariga yetarlicha e'tibor qaratmaydi, chunki ular istisnoli darajaga ega.[10, b. 43].

Qo'shimcha turdag'i jinoiy jazolarning tizimini samarali o'rnatish uchun ularning aniq ro'yxatini belgilashdan boshlash kerak. Shuningdek, ba'zi eskirgan jazo turlarini qaytarish kerak, shuningdek, bu masala bo'yicha xorijiy davlatlar tajribalarini qabul qilish zarur [11, b. 14].

Yuqoridagilarga asoslangan holda, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 44-moddasidan kelib chiqib, bugungi kunda qo'shimcha jazo turlarining tuzilishi:

- 1) davlat mukofotlaridan mahrum qilish;
- 2) faxriy unvondan mahrum qilish;
- 3) maxsus unvondan mahrum qilish;
- 4) sinf darajasidan mahrum qilish;
- 5) harbiy unvondan mahrum qilish;
- 6) jarima;
- 7) muayyan lavozimni egallash huquqidan mahrum qilish;
- 8) muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilish;
- 9) ozodlikni cheklash.

Qonun chiqaruvchi tomonidan Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 45-moddasida qo'llanilgan huquqiy texnikaning o'sha usuli faqat ba'zi jazolarni ikki marta sanashdan (Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 45-moddasi 2-qismi) uzoqlashish zarurati tufayli yuzaga keladi, ammo bu jazoning uchta turini, ya'ni "aralash jazo" ni alohida tur sifatida ajratish uchun asos bo'la olmaydi.

Xulosa o'rnila yuqorida keltirilgan fikrlarni inobatga olgan holda har ikki davlat Jinoyat qonuni jazo tizimida birinchisi asosiy va ikkinchisi qo'shimcha turdag'i jazolarni qoldirishni taklif qilish mumkin.

Keljakda bu tuzilma jinoyatlarning yana yangi turlari paydo bo'lisdidan kelib chiqqan holda yanada isloh qilinishi kerak.

References:

1. https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/
2. <https://lex.uz/docs/111453?ONDATE=24.09.1996>
3. Уголовный кодекс РСФСР: закон от 27.10.1960 (ред. от 30.07.1996) (утратил силу) [Электронный ресурс]. URL: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_2950/
4. Уголовный кодекс Российской Федерации: федер. закон от 13.06.1996 № 63-ФЗ (ред. от 01.07.2021) (с изм. и доп., вступ. в силу с 01.12.2021) // Собрание законодательства РФ. 1996. № 25. Ст. 2954.



EURASIAN JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES

Innovative Academy Research Support Center

UIF = 8.3 | SJIF = 7.984

www.in-academy.uz

5. Рожкова Л.О. Дополнительные виды наказаний в современном уголовном праве. Юристъ-Правоведъ, 2022, №2 (101) .
6. Дуюнов В.К. Механизм уголовно-правового воздействия: дис. ... д-ра юрид. наук. Тольятти, 2001<https://lex.uz/docs/111453?ONDATE=24.09.1996>
7. Боголепова Л.С. Дополнительные виды уголовных наказаний: вопросы совершенствования // Образование и наука в России и за рубежом. 2019. № 14.
8. Гатиятуллина Р.Р. Особенности основных и дополнительных наказаний по уголовному законодательству // Матрица научного познания. 2018. № 1.
9. Черненко Т.Г. Некоторые вопросы применения дополнительных наказаний // Вестник Кузбасского института. 2020. № 1(42)
10. Щербаченко А.К. Система дополнительных видов наказания по действующему российскому уголовному законодательству // Юристъ-Правоведъ. 2015. № 4(71)
11. Ничуговская О.Н. Система наказаний в современном уголовном законодательстве: проблемы и перспективы развития. М., 2016.